YO‘Q BO‘LIB KETISH XAVFI OSTIDAGI YOVVOYI FAUNA VA FLORA TURLARINI MUHOFAZA QILISH – BUGUNGI EKOLOGIYA HUQUQINING DOLZARB MASALASI

Karimova Nigina Botirjon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Atrof-muhit huquqi va barqaror rivojlanish” mutaxassisligi magistranti
niginakarimova20010914@gmail.com

Bugungi kunga kelib bioxilma-xillik mavzusi nafaqat ekologlar uchun, balki jamiyatning har qatlami uchun birday xavotirli mavzuga aylanib bormoqda. Chunki atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar bioxilma-xillikni chetlab o‘tgani yo‘q, bu esa bevosita insonlarning yashash sharoitiga va sog’lig’iga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora dunyosining dolzarbligi shundaki, jamiki turlar bir-biriga uzviy bog’liqdir. Demoqchimanki, yer yuzidagi biror turning kamayishi yoki yo‘qolishi, albatta, boshqa turga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazadi. Shuning uchun ham bugungi kunda bunday turlar ham milliy doirada, ham xalqaro miqyosdagi alohida muhofazani talab etadi. Afsuslanarli jihati shundan iboratki, bugun ekologiya garchi jar yoqasida turganligiga qaramay, unga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish kabi noinsoniy harakatlar tobora avj olmoqda. Mamlakatimizda yigirma yetti mingdan ziyod tur yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Ushbu turlar (ilvirs, qor qoploni, sayg’oqlar, yo‘rg’a tuvaloqlar, Buxoro bug’ulari…) sonini barqaror holatga keltirish, noyob va zaif turlar uchun alohida muhofaza chora-tadbirlarini ishlab, amaliyotga tatbiq etish ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi maxsus vakolatli organining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

“Yovvoyi fauna va floraning ko‘p sonli ajoyib va turli xil shakllari zamin tabiiy tizimlarining betakror qismi hisoblanadi, ular hozirgi va kelgusi avlodlar uchun muhofaza qilinishi kerak.” Ushbu ma’noli jumla “Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to‘g’risida”gi Vashington Konvensiyasida aks etgan. Jumla bejizga bitilmagan, zero, u barcha xalqlarga o‘z majburiyatlarini eslatib turadi: biologik xilma-xillik sening davringgacha saqlanib yetib keldimi, demak, sen ham sendan keying avlodlarga uni yetkazib berishga majbursan. Ushbu konvensiya CITES konvensiyasi deb ham yuritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vashington Konvensiyasini Oliy Majlisning 1997-yil 25-apreldagi 433-I-son bilan ratifikatsiya qilgan. Aytish joizki, ushbu xalqaro hujjat yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlar bilan munosabatni tartibga soluvchi eng yirik va asosiy hujjat sanaladi. Ushbu konvensiya jamiki turlarni ularning zaruriy himoya darajasiga qarab, uchta ilovaga birlashtiradi. Birinchi ilovada yo‘qolib ketgan va yo‘qolish ketish xavfi yuqori bo‘lgan turlar keltirilgan, ikkinchi ilova esa, hozirda yo‘qolish xavfi mavjud bo‘lmagan, biroq hozir ushbu turlar muhofaza ostiga olinmasa, keyinchalik yo‘qolish xavfi mavjud bo‘lgan turlar haqida xabar beradi. Ya’ni ikkinchi ilovaga mansub turlar alohida muhofaza etilmasa, ular kelgusida birinchi ilovaga o‘tish xavfi mavjud bo‘ladi. So‘nggi uchinchi ilovada esa xalqaro hamkorlikka muhtoj, a’zo mamlakatlardan birining iltimosiga ko‘ra, kiritilgan turlar belgilangan. Birinchi ilovaga mansub turlar bilan tijoriy munosabatlarga kirishish qat’iyan ta’qiqlanadi, umuman yuqoridagi barcha ilovaga mansub turlar bilan munosabatga kirishish uchun CITESning ma’muriy organi tomonidan berilgan maxsus ruxsatnoma talab etiladi.

Interpolning beradigan ma’lumotlariga ko‘ra, yovvoyi fauna va flora turlarining kontrabandasi ularga qo‘yiladigan pul hajmiga ko‘ra, narkotiklar kontrabandasidan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi. Aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasi birinchi qismida belgilab qo‘yilganidek, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Davlat o‘zini oldiga qo‘ygan biror maqsadiga erishish uchun u yo‘lida, albatta, turli islohotlar qilishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi 1995-yildan buyon “Biologik xilma-xillik

to‘g’risida”gi Konvensiyaga a’zo va mana shu yildan beri mamlakatimiz konvensiya majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda o‘z zimmasiga olgan. Konvensiya davlatlarning biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha strategiyalar, reja va dasturlar ishlab chiqishni ham nazarda tutadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 484-sonli “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi to‘g’risida”gi Qarori mavjud bo‘lib, ushbu strategiya mana shu yillar davomida ekoturizmni rivojlantirishni, rekreatsion zonalarni ko‘paytirishni, biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishning yoki mavjud rejalar va dasturlarga moslashtirishning milliy strategiyalari, rejalari va dasturlarini ishlab chiqishni, tanazzulga uchragan ekotizimlarni tiklash hamda kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarni tiklash chora-tadbirlarini ko‘rishni va boshqa asosiy masalalarni hal etishni ko‘zlaydi. Strategiyada ta’kidlanganidek, antropogen ta’sirlar ostida kuchayib borayotgan ekotizimlarning umumiy tanazzuli va fragmentatsiyasi areallarning va ham kamyob, ham resurs turlarning soni qisqarishiga olib keldi. Bunday turlar yovvoyi tabiatda yo‘qolib ketish xavfiga ega va Qizil kitobga kiritish uchun tavsiya etilgan. Hayvonlarning 207 ta turi va kenja turlari kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turli toifalarga kiritilgan, ulardan 184 tasi O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan (2009-y.), ulardan sut emizuvchilarning 24 turi, qushlarning 48 turi, reptiliylarning 16 turi, baliqlarning 17 turi, bo‘g’imli chuvalchanglarning 3 ta turi, molyuskalarning 14 ta turi va bo‘g’imoyoqlilarning 60 turi mavjud.

Aytish joizki, Markaziy Osiyoning va O‘zbekiston Respublikasining endemikasi umurtqali hayvonlarning 53 ta turi va kenja turini ifodalaydi Sudralib yuruvchilarda endemizm ko‘rsatkichi 50 % ga teng, sut emizuvchilar sinfi esa pastroq ko‘rsatkichga – 14 % ga, qushlr sinfi 1,7 %, baliqlar orasidagi endemizm darajasi esa 50 %dan ziyodroqni tashkil etadi.

Kun kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig’ilishida ikkinchi o‘qishda muhim masala ham ko‘rib chiqildi. Ya’ni endilikda daraxt va butalar bilan qonunga xilof ravishda munosabatda bo‘ladigan shaxslarga moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi. Xususan, daraxt va butalarni qonunga xilof ravishda kesgan yuridik shaxslar 99 million so‘mgacha moliyaviy jarima to‘lashdan tashqari, daraxt kesilgan joyga 100 tup ko‘chat ekadi va ko‘chatlarni uch yil mobaynida parvarishlaydi. Ushbu masala oxirgi kunlarda juda avj nuqtasiga yetgan edi. Qayga qaramaylik, betonlangan daraxtlar, shikastlangan va noqonuniy kesilayotgan daraxtlar. Ekologiyaning bugungi “kambag’al” holatida unga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lganlar javobgarlik hissini tuyishi shart. Shu o‘rinda aytish joizki, so‘nggi kunlarda uy hayvonlariga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish kabi holatlar juda ko‘payib ketdi. Huquq hamisha insoniylik va adolat bilan nafas oladi. Garchi mavzu doirasidan sal chetroq bo‘lsa-da, hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish mavzusiga alohida to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik. Afsus bilan tan olish kerakki, bu kabi noinsoniy harakatlar bugungi kunga kelib, o‘zining avj nuqtasiga yetdi. Bu qonun ijodkorligining aktivligidan, ijroning esa zaifligidan dalolat beradi. Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lgan shaxslar uchun javobgarlik masalasini yanada kuchaytirish lozim. Atrofimizda bo‘layotgan bu kabi holatlarga ko‘z yumib ketadigan bo‘lsak, ahvol borgan sari jiddiy tus oladi. Albattaki, savol tug’ilishi mumkin: javobgarlikni yanada kuchaytirish “inson, uning manfaati – hamma narsadan ustun” qabilidagi tamoyilga zid kelmaydimi deb. Aslo. Chunki qo‘lidan bunday noinsoniy, shafqatsiz harakatlar qilgan insonning yuragi o‘sha paytda “jiz” etamagan bo‘lsa, u qo‘llardan boshqa jinoyat ham kelishi mumkin. Ayni damda boshqa mamlakatlarda hayvonlarni muhofaza qilish borasidagi ishlar avj olmoqda. Misol uchun, rivojlangan mamlakatlardan biri Janubiy Koreya endilikda itlarni muhofaza qilish maqsadida, itlarni so‘yish va sotishni ta’qiqlovchi qonunni ishlab chiqayotganligi ijtimoiy tarmoqlarda tarqaldi. Ushbu qonun itlarni – chorvachilik mahsulotlaridan butkul chiqarib tashlashni nazarda tutadi. Bundan tashqari, fermerlar qonunga ko‘ra, 3 yil muddat ichida biznesni yopish rejasini taqdim etishlari shart. Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, Janubiy

Koreyada 1150dan ortiq it fermasi va 1600 dan ortiq it go‘shtini taklif etadigan restoranlar mavjud. Agar ishlab chiqiladigan qonun haqiqatdan kuchga kirsa, 2027-yilga borib, ushbu davlatda it go‘shtini taklif etadigan birorta joy qolmas ekan. Bundan tashqari, innovatsiyalarga boy mamlakat bo‘lgan Xitoyning Poyang ko‘li qo‘riqxonasi sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalangan holda qushlarni sanash va oziqlantirishni boshlagani hech kimga sir emas.

Kamyob, yo‘qolib ketgan va yo‘qolish xavfi ostidagi fauna va flora turlarini gnofondini saqlab qolishda Qizil kitob alohida ahamiyatga ega. Avvalo, uning ramziy ma’nosiga to‘xtalib o‘tsak. Qizil rang bevosita “man qilish”, “ta’qiqlash”, “xavotir” kabi ma’nolarni ifoda etadi. Shu boisdan ham kitobga “Qizil kitob” nomi berilgan. Qizil kitob davriy nashr hisoblanadigan, davlatning rasmiy hujjatidir. Aytish joizki, unga kiritilgan barcha turlar O‘zbekiston Respublikasi hududida muhofaza etiladi. CITES ilovalaridan farqli o‘laroq, Qizil kitobga zaif turlar (tabiatan noyob turlar) va noaniq maqomli turlar (tur haqida yetarli ma’lumot yo‘q. Misol uchun: manul, tyanshan tog’ qo‘ylari) ham kiritilgan. Bundan tashqari, yo‘qolgan, yo‘qolish arafasidagi turlar va yo‘qolish xavfi mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan turlar ham mavjud.

Darhaqiqat, ushbu jar yoqasida turgan turlarni barqaror holatga keltirishni jamiyatning har qaysi bo‘g’ini idrok etishi kerak. Chunki, ular ekologiyaning eng muhim qatlami hisoblanadi, ularsiz yashil ekologiyani tasavvur etish qiyin, ular tufayli insonlarning yashash sharoiti mahsulotlari ishlab chiqariladi, eng asosiysi, ular atrof-muhitning bir butun, ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni alohida muhofaza ostiga olish talab etiladi. Bugun tijorat munosabatlarida yo‘qolib borayotgan hayvonlardan qilingan mahsulotlarga talab anchayin katta va ortib bormoqda. Misol uchun, tuya junidan qilingan ko‘rpa va kiyimlar, tulki dumidan qilingan kiyim-kechak mahsulotlari, timsoh terisidan ishlangan poyabzallar, bularning sanog’i yo‘q. Inson manfaatlari hamma narsadan ustun, lekin bozorda o‘sha mahsulotlarga bo‘lgan talab birozgina bo‘lsa-da pasayishi yo‘qolib ketayotgan turlarni muhofaza qilishga o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi. Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarini muhofaza qilish – bugungi kun ekologiya sohasining, insoniyatning eng ustuvor vazifasi, zero ekologiya – barchamizniki!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. “Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to‘g’risida”gi Vashington Konvensiyasi;
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 484-sonli “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi to‘g’risida”gi Qarori;
4. Narzullaev Olim. Xalqaro ekologiya huquqi. Qishloq xo‘jalik huquqi; yer, suv, o‘rmon va kon huquqi, ekologiya huquqi yo‘nalishi magistratura talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. –T.:TDYI nashriyoti, 2009. 112 bet.Sarlavhada: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, TDYI;
5. Lex.uz.